# 2020- yil yanvar-noyabr oylari uchun Andijon viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida Andijon viloyatida jami **3872,3** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur‘ati 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **104,8 %** ni tashkil etdi.




## 2020- yil yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo’yicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo`lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo`yicha bo`linadi.




***Ma‘lumot uchun**: qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta‘mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.*

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **269,9** mlrd. so’mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o`sish surati **201,3 %** ni, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **6,97 %** ni tashkil etdi**.**



## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da




***Ma‘lumot uchun:*** *yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Andijon shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining* ***30,8*** *% i yoki 2019- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan* ***108,4 %)*** *ga to‘g‘ri keldi.*

## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da




Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **66,10 % i** to‘g‘ri kelib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylari ko‘rsatkichiga nisbatan **1,93 %** punktga ka’maydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **101,4 %** ni tashkil etgan holda **2559,7** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

*Norasmiy sektor hissasiga to’g’ri kelgan qurilish ishlari ulushi o’tgan yilning mos davriga nisbatan **26,93** % ni tashkil etdi yoki **1042,7** mlrd. so’m miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **100,7** % ni tashkil etdi.*

## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi

**ulushi % da, mlrd. so'm**




Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **196,9** mlrd. so'm yoki 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **88,2 %** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3675,4** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **105,9 %** ni tashkil etdi.

## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da





# Hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlari 2020- yil yanvar-noyabr oylarida

| | Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so’m | Davlat mulki | | Nodavlat mulk * | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | mlrd. so‘m | ulushi % da | mlrd. so‘m | ulushi % da |
| **Viloyat bo`yicha:** | 3872,3 | 196,9 | 5,1 | 3675,4 | 94,9 |
| Andijon sh. | 1258,4 | 34,8 | 2,8 | 1223,6 | 97,2 |
| Xonobod sh. | 108,4 | 0,0 | 0,0 | 108,4 | 100,0 |
| tumanlar : | | | | | |
| Andijon | 571,8 | 24,0 | 4,2 | 547,8 | 95,8 |
| Asaka | 172,4 | 12,0 | 7,0 | 160,4 | 93,0 |
| Baliqchi | 102,0 | 12,0 | 11,8 | 90,0 | 88,2 |
| Bo’ston | 134,6 | 3,2 | 2,4 | 131,4 | 97,6 |
| Buloqboshi | 64,1 | 12,0 | 18,7 | 52,1 | 81,3 |
| Jalaquduq | 171,4 | 12,0 | 7,0 | 159,4 | 93,0 |
| Izboskan | 123,3 | 11,9 | 9,7 | 111,4 | 90,3 |
| Ulug`nor | 82,8 | 12,0 | 14,5 | 70,8 | 85,5 |
| Marxamat | 178,6 | 12,0 | 6,7 | 166,6 | 93,3 |
| Oltinko`l | 152,1 | 3,1 | 2,0 | 149,0 | 98,0 |
| Paxtaobod | 187,1 | 11,9 | 6,4 | 175,2 | 93,6 |
| Xo`jaobod | 110,9 | 12,0 | 10,8 | 98,9 | 89,2 |
| Shaxrixon | 298,0 | 12,0 | 4,0 | 286,0 | 96,0 |
| Qo`rg`ontepa | 156,4 | 12,0 | 7,7 | 144,4 | 92,3 |

* Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda

## Andijon viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari,% da

### 2019- yil yanvar- noyabr

| Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | Fuqarolik obyektlarini qurish | Bino va inshootlarni qurish |
|---|---|---|
| 17,2 | 9,1 | 73,7 |

### 2020- yil yanvar-noyabr

| Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | Fuqarolik obyektlarini qurish | Bino va inshootlarni qurish |
|---|---|---|
| 12,3 | 12,2 | 75,5 |

***Ma'lumot uchun:*** *Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

# Bino va inshootlar qurilishi

**ulushi % da**

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **5,1 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **5,1 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **8,4 %** punktga ka'mayib, **59,2 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,3 %** punktga ko'payib, **35,7 %** ni tashkil etdi.





## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

**ulushi % da**

Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **14,3 %** ni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **7,0 %** punktga ko‘paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **85,6 %** (**6,9 %** punktga ka‘maydi).

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan **0,1 %** punktga ka‘mayib, **0,1 %** ni tashkil etdi.



# Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**ulushi % da**

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **2,9 %** punktga ka'maydi va **10,9 %** ni tashkil etdi. Qolgan **89,1 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **2,9 %** punktga ko'paydi.



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-noyabr oylarida

### Eng yuqori hajm
*(mlrd. so'm)*

1. Andijon sh. 1258,4
2. Andijon 571,8
3. SHahrihon 298,0

### Kichik hajm
*(mlrd. so'm)*

1. Baliqchi 102,0
2. Buloqboshi 64,1
3. Ulug'nor 82,8



**Andijon viloyati statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**

**Nashr uchun mas'ul: S.Hadjaev**

***Aloqa telefoni: (0374) 228-29-37***